

60610100-Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari
(yo'nalishlar bo'yicha)
bakalavriat ta'lim yo'nalishi

60610100-Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

60610100-Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi - “Axborot-kommunikasiya texnologiyalari” *ta'lim* sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u fanning turli tarmoqlarida kompyuter texnologiyalarini qo'llashning talablariga va amaliy faoliyatning turli sohalariga axborot texnologiyalarining kirib borishini o'rganish, soha istiqbolini belgilash, kasbiy ko'nikmaga, umumiy o'rta va maxsus kasb-hunar ta'limi hamda o'rta maxsus professional ta'lim, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining bilim vositalari, usullari va uslublari masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- muhandislik va loyiha-konstruktorlik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- tadbirkorlik;
- pedagogik (o'rnatilgan tartibda olgan kvalifikatsiyasiga mos ravishda) va ma'rifat;
- servis xizmati ko'rsatish va shu kabilarni oladi.